

HUDUDLARDA YOG'-MOY MAHSULOTLARINI ISHLAB CHIQUARISH INNOVATSION SALOHİYATINI BAHOLASH

Choriyev J.B.

OSIYO XALQARO UNIVERSITETI

MAQOLA MALUMOTI

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

Received: 30.05.2026

Revised: 31.05.2026

Accepted: 01.06.2026

KALIT SO'ZLAR:

*yog'-moy sanoati,
innovatsion salohiyat,
noan'anaviy moyli
ekinlar, paxta chigiti,
xomashyo bazasi, ishlab
chiqarish dinamikasi,
import o'rnini bosish,
hududiy tahlil.*

Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi hududlarida yog'-moy mahsulotlarini ishlab chiqarishning bugungi holati, tarmoqning innovatsion salohiyati va rivojlanish tendensiyalari tahlil qilingan. "O'zyog'sanoat" uyushmasining tarkibiy tuzilmasi, tarmoqni rivojlantirish strategiyasidagi yutuq va kamchiliklar ko'rib chiqilgan. Maqolada 2022–2024-yillar oralig'ida respublika va viloyatlar kesimida yog'-moy ishlab chiqarish hajmlarining o'zgarish dinamikasi statistik ma'lumotlar asosida o'rganilgan.

O'zbekiston Respublikasi "O'zyog'sanoat" uyushmasi boshqaruv tizimi faoliyati samaradorligini tahlil qiladigan bo'lsak, uning tashkiliy tuzilmasi yuqorida qayd etilgan qarorda belgilangan vazifalarga muvofiq tuzilgan. Uyushmada 2 ta boshqarma, 6 ta bo'lim va 3 ta xizmat tashkil etilgan bo'lib, tarkibida "Yog'-moy sanoati tarmog'i kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish ilmiy – amaliy markaz" ham faoliyat ko'rsatadi.

Uyushma yog'-moy xom ashyolarini qayta ishlash va yog'-moy mahsulotlarini ishlab chiqarish bo'yicha Respublikada yagona kompleks sifatida (tarmoq korxonalarini birlashtirgan holda) yog'-moy sanoatini rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqishi, shuningdek zamonaviy bozor munosabatlarini tarmoqqa keng joriy qilishi lozimligi

belgilangan. Ushbu yo‘nalishda uyushma tomonidan muayyan tadbirlar amalga oshirilaётganligidan yuqoridagi tahlillar dalolat beradi.

Shuningdek, ishlab chiqilgan sohani rivojlantirish strategiyasiga muvofiq MDH mamlakatlaridan Tojikiston hamda qo‘shni Afg‘oniston, Pokiston mamlakatlarida marketing tadqiqotlari asosida mahsulot eksporti amalga oshirilgan, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish, tarmoqning investitsion jozibadorligini namoyish qilish maqsadlarida xalqaro konferensiyalar, ko‘rgazmalar o‘tkazilgan, sohada yetakchi xorijiy kompaniyalar bilan memorandumlar imzolangan, yog‘- moy sohasida Respublika standartlarini xalqaro standartlarga uyg‘unlashtirish va ularni takomillashtirish bo‘yicha chora-tadbirlar amalga oshirilgan, xom ashyo bazasini rivojlantirish maqsadida mamlakatda soya va kungaboqar ekish maydonlarini kengaytirish takliflari kiritilgan, moyli xom ashyo importi amalga oshirilgan.

Shunga qaramay, qabul qilingan rivojlanish strategiyasi kamchiliklardan xoli emas. Jumladan, tarmoqni rivojlantirish imkoniyatlari va to‘siqlari chuqur tahlil qilinmagandigi sababli, tarmoqda mavjud muammolar to‘liq qamrab olinmagan, asosiy e‘tibor uyushma tizimidagi korxonalar sonini oshirishga qaratilgan, ichki bozorni to‘liq mahalliy moylar turi bilan ta‘minlash, eksport geografiyasini yanada kengaytirish imkoniyatlari ko‘rilmagan, uyushma tomonidan moyli xom ashyoni chuqur qayta ishlash va sifatli, murakkab qayta ishlashni talab qiladigan texnologiyalarni o‘zlashtirish, import o‘rnini bosuvchi raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish ko‘lami yetarlicha belgilanmagan. “Yog‘-moy sanoati tarmog‘i kadrlarini qayta tayёрlash va malakasini oshirish ilmiy – amaliy markaz”ining sohani ilmiy-innovatsion rivojlantirishdagi strategik yo‘nalishlari belgilab berilmagan, zamonaviy, energotejamkor ishlab chiqarishni rivojlantirish ko‘zda tutilmagan.

Ushbu tahlillar natijalari bizga tarmoqni rivojlantirish strategiyasini hududlar imkoniyatlari va sharoitlariga mos ravishda ishlab chiqish zarurligi to‘g‘risida xulosa chiqarishimizga asos bo‘ldi. Shu munosabat bilan respublikamiz hududlari kesimida yog‘- moy sanoatining rivojlanish ko‘rsatkichlarini tahlil qilish maqsadga muvofiq. Ma’lumotlar 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval

Viloyatlar kesimida yog'-moy ishlab chiqarish ko'rsatkichlari dinamikasi¹⁶¹

T/r	Viloyatlar	Yillar		
		2022	2023	2024
1	Andijon	27680,64	19676,48	15082,29
2	Buxoro	48518,34	39974,97	32800,26
3	Jizzax	27443,90	16645,90	11612,12
4	Qashqadaryo	23117,85	23863,69	14533,29
5	Navoiy	12506,94	9919,10	11853,02
6	Namangan	30720,32	37261,24	28918,68
7	Samarqand	69466,98	61187,93	63131,96
8	Surxondaryo	16717,60	18243,34	9344,90
9	Sirdaryo	24445,91	12476,38	15383,16
10	Toshkent	30026,68	31841,83	27231,51
11	Farg'ona	47064,46	73401,32	46761,19
12	Xorazm	35505,48	31367,19	26434,20
13	Toshkent shahri	24013,35	12493,90	14364,05
14	Qoraqalpog'iston Respublikasi	25279,60	26640,80	15412,07
	Jami ¹⁶²	442508,04	414994,05	332873,38

2.3.1-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki respublika miqyosida ishlab chiqarish hajmi 2022–2024-yillar oralig'ida sezilarli darajada pasaygan. 2022-yilda jami ishlab chiqarish 442508,04 tonnani tashkil etgan. 2023-yilda bu ko'rsatkich 414994,05 tonnaga tushgan (6,2% lik pasayish). 2024-yilda esa pasayish sur'ati tezlashib, 332873,38 tonnaga tushib qolgan. Ikki yil ichida jami ishlab chiqarish hajmi qariyb 25% ga qisqargan.

Viloyatlar kesimida ishlab chiqarish quvvatlari notekis taqsimlangan. Samarqand viloyati tadqiqot davomida eng barqaror va yirik ishlab chiqaruvchi bo'lib qolmoqda. 2024-yilda 63131,96 tonna mahsulot bilan respublika jami hajmining qariyb 19% ini ta'minlagan. Farg'ona viloyati 2023-yilda keskin o'sish ko'rsatib (73401,32 tonna), respublika yetakchisiga aylangan, biroq 2024-yilda ishlab chiqarish hajmi qayta pasayib, 46761,19

¹⁶¹ O'zbekiston Respublikasi davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan

¹⁶² O'zbekiston Respublikasi "O'zyog'sanoat" uyushmasiga a'zo bo'lmagan korxonalar ishlab chiqarishini ham hisobga olgan holda.

tonnani tashkil etgan. Buxoro viloyati doimiy ravishda yuqori uchlikda turadi, ammo ishlab chiqarish hajmi 2022-yildagi 48,5 ming tonnadan 2024-yilda 32,8 ming tonnaga tushgan.

Ayrim hududlarda ishlab chiqarish hajmi ikki baravar yoki undan ko'proqqa qisqargan. Jizzax viloyati 2022-yilda 27443,90 tonna bo'lgan bo'lsa, 2024-yilda 11612,12 tonnaga tushib qolgan (taxminan 57% lik pasayish). Sirdaryo viloyati 2022-yildagi 24,4 ming tonnadan 2024-yilda 15,3 ming tonnaga tushgan. Suxondaryo viloyati 2024-yilda deyarli ikki baravarlik pasayishni (9344,90 tonna) ko'rsatgan. Bu viloyatlarga paxta ekin maydonlarining qisqarish ko'proq ta'sir ko'rsatgan.

2023 yilga nisbatan moy ishlab chiqarish Navoiy (119,50%), Samarqand (103,18%), Sirdarë (123,30%) viloyatlari va Toshkent shahrida (114,97%) o'sgan. Bizning fikrimizcha, bu viloyatlardagi korxonalar holatni o'nglab olish uchun boshqa moyli urug'larni qayta ishlashga o'tishgan. Ammo Jizzax (69,76%), Qashqadarë (60,90%), Farg'ona (63,71%) viloyatlari va Qoraqalpog'iston Respublikasidagi (57,85%) pasayishlar bu hududlarda xom ashyo etishmasligi holatini yaxshilash choralari haligacha ko'rilmaganligidan dalolat beradi.

Hududlar kesimidagi tahlil shuni ko'rsatadiki, deyarli barcha viloyatlarda 2022-yilga nisbatan ishlab chiqarish hajmi pasaygan. Bu tendensiya yog'-moy sanoatida xomashyo yetishmovchiligi yoki tarmoqdagi tizimli o'zgarishlar barcha hududlarga birdek salbiy ta'sir ko'rsatayotganidan dalolat beradi.

O'zbekistonda yog'-moy sanoatini rivojlantirishning asosiy muammolaridan biri xomashyo bazasining etishmasligidadir. Shuning uchun, tadqiqotimizning keyingi bosqichida mamlakatda qayta ishlash uchun etishtiriladigan paxta chigiti va boshqa moyli donlar dinamikasini tahlil qilamiz.

2-jadval

O'zbekistonda moy olish uchun qayta ishlangan paxta chigiti va noan'anaviy moyli donlar¹⁶³

tonna

№	Moyli ekinlar turi	Yillar		2024 yil 2023 yilga nisbatan, %
		2023	2024	
1	Paxta chigiti	1188000	1137000	95,7
2	Soya	15992	66143	4,1 b.
3	Masxar	11771	10799	91,7

¹⁶³ Jadval yog'-moy sanoat uyushmasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan

4	Kungaboqar	20316	187943	9,2 b.
5	Zig'ir	4033	4070	100,9
6	Kunjut	42300	55348	130,8
7	Meva-sabzavotlar danaklari	397	1105	2,8 b.
8	Boshqa donlar	3617	981	27,1

2-jadval ma'lumotlari O'zbekistonda o'simlik moyi olish uchun qayta ishlangan xomashyo bazasidagi jiddiy tarkibiy o'zgarishlarni ko'rsatmoqda.

Eng muhim iqtisodiy ko'rsatkich — sanoatning an'anaviy paxta chigitiga bo'lgan bog'liqligi kamayib, noan'anaviy moyli donlar ulushi keskin ortayotganidir:

1. Paxta chigiti: Qayta ishlash hajmi 2023-yildagi 1188000 tonnadan 2024-yilda 1137000 tonnaga (–4,3%) tushgan. Bu pasayish qishloq xo'jaligidagi tarkibiy islohotlar va yer maydonlarining boshqa ekinlarga ajratilishi bilan bog'liq.

2. Kungaboqar: Eng yuqori o'sish sur'atini ko'rsatgan xomashyo bo'lib, qayta ishlash hajmi 20316 tonnadan 187943 tonnaga, ya'ni 9,2 baravarga oshgan. Bu ichki bozorda kungaboqar yog'iga bo'lgan yuqori talabni mahalliy xomashyo hisobiga qoplashga urinishdir.

3. Soya: Qayta ishlash hajmi 15992 tonnadan 66143 tonnaga yetib, 4,1 baravarga o'sgan. Soya nafaqat moy, balki chorvachilik uchun yuqori oqsilli yem (shrot) manbai sifatida ham strategik ahamiyatga ega.

Jadvalda ayrim kichik tarmoqlarning jadal rivojlanayotgani ko'rinadi:

1. Kunjut: Ishlab chiqarish 42300 tonnadan 55348 tonnaga (+30,8%) oshgan.

2. Meva-sabzavot danaklari: Qayta ishlash hajmi 2,8 baravarga (397 t dan 1 105 t ga) o'sgan, bu oziq-ovqat chiqindilarini qayta ishlash va yuqori qiymatli parhez moylar olish texnologiyasi rivojlanayotganidan dalolat beradi.

3. Zig'ir: Barqarorlikni saqlab qolgan holda biroz o'sish (100,9%) ko'rsatgan.

Pasayish kuzatilgan yo'nalishlar:

- Masxar (Saflor): Qayta ishlash hajmi 8,3% ga (11 771 t dan 10 799 t ga) kamaygan.
- Boshqa donlar: Keskin pasayish kuzatilib, 2023-yildagi darajaning atigi 27,1% ini tashkil etgan.

Jadvaldagi ma'lumotlar yog'-moy korxonalari tomonidan qishloq xo'jalik korxonalaridan sotib olingan moyli donlar hajmini ko'rsatadi. Umuman olganda yillar davomida moyli xomashyo bilan ta'minlanish notekis bo'lib, kechkin sakrashlar kuzatiladi. Bu holat birinchidan, paxta chigiti taqsimoti kabi ta'minot tizimining bugungi kunda yo'qotilganligi, ikkinchidan, yog'-moy korxonalarining qishloq xo'jaligi korxonalari bilan barqaror integratsion

aloqalarning mavjud emasligi, uchinchi, qishloq xo'jaligi korxonalari tomonidan moyli ekinlarni etishtirish moy olish uchun maqsadli amalga oshirilmaётganligi bilan tushuntiriladi.

Iqtisodiy tahlil shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston yog'-moy sanoati "monomadaniyat" (faqat paxta) modelidan voz kechib, ko'p tarmoqli xomashyo bazasiga o'tmoqda. Bu o'zgarish mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash va importga qaramlikni kamaytirishda muhim omil hisoblanadi.

Yog'-moy sanoati korxonalarining barqaror rivojlanishini ta'minlash maqsadida qo'shimcha qiymat yaratish zanjiri bo'yicha barcha ishtirokchilarning iqtisodiy munosabatlarini modernizatsiyalash va yangi darajaga ko'tarish talab etiladi.

3-jadval

Hududlar bo'yicha noan'anaviy moy ishlab chiqarish holati¹⁶⁴

2024 yil, tonna

T/r	Viloyatlar	Paxta moyidan tashqari boshqa noan'anaviy moy turlari ishlab chiqarish	Jami moy mahsulotlari ishlab chiqarishdagi hissasi, %
1	Andijon	33,70	0,22
2	Buxoro	709,82	2,16
3	Jizzax	46,71	0,40
4	Qashqadaryo	2196,59	15,11
5	Navoiy	547,65	4,62
6	Namangan	989,78	3,42
7	Samarqand	31050,63	49,18
8	Surxondaryo	1120,00	11,99
9	Sirdarë	5448,56	35,42
10	Toshkent	15227,69	55,92
11	Farg'ona	5509,00	11,78
12	Xorazm	36,79	0,14
13	Toshkent shahri	13747,72	95,71
14	Qoraqalpog'iston Respublikasi	5,11	0,03
	Jami	76669,75	23,03

¹⁶⁴ O'zbekiston Respublikasi davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan

Hududlar bo'yicha paxta yog'idan tashqari boshqa turdagi noan'anaviy moy ishlab chiqarish hajmlarini qiësiy tahlil qilish holatni yanada yaxshiroq tushunib olish imkonini beradi. (3-jadval). Shunday qilib, 2024 yilda Samarqand (49,18%), Sirdarë (35,42%), Toshkent (55,92%) viloyatlari va, ayniqsa, Toshkent shahrida (95,71%) noan'anaviy moy turlari ishlab chiqarish ulushi ancha yuqori bo'lsa, Andijon (0,22%), Buxoro (2,16%), Jizzax (0,40%), Navoiy (4,62%), Namangan (3,42%), Xorazm (0,14%) viloyatlarida va, ayniqsa, Qoraqalpog'iston Respublikasida (0,03%) noan'anaviy moy urug'larini qayta ishlashga o'tish past darajada qolmoqda. Bu hududlarda yog'-moy korxonalarining ishlab chiqarish quvvatlaridan to'liq foydalashni ta'minlash uchun noan'anaviy moyli ekinlar ekish maydonlarini rejalashtirish va ularning faoliyatini moy turlari bo'yicha ishlab chiqarishni ixtisoslashtirgan holda modernizatsiyalash strategiyalarini joriy etish talab etiladi.

Adabiyotlar

1. Джумаева, З. (2025). НОВАЯ ТЕОРИЯ ЭКОНОМИЧЕСКОГО РОСТА: ЭВОЛЮЦИОННЫЙ ПОДХОД. *Международный журнал искусственного интеллекта*, 1 (1), 869-873.
2. Джумаева, З. (2025). РОЛЬ ТОРГОВОЙ ПОЛИТИКИ В ОБЕСПЕЧЕНИИ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ НАЦИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКИ: СОВРЕМЕННЫЕ ПОДХОДЫ. *Международный журнал искусственного интеллекта*, 1 (1), 483-488.
3. Jumayeva, Z. Q., & Izatova, N. N. (2025). GLOBALLASHUV SHAROITIDA O'ZBEKISTON TIJORAT BANKLARIDA TRANSFORMATSIYA JARAYONLARINI O'TKAZISHNING MUHIMLIGI. *Modern Science and Research*, 4(6), 492-496.
4. Джумаева, З. (2025). НАУЧНО-МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ МОТИВАЦИОННЫХ ФАКТОРОВ В РАЗВИТИИ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ. *Международный журнал искусственного интеллекта*, 1 (4), 1571-1574.
5. Джумаева, З.К. (2025). РЕАЛИЗАЦИЯ ТРАНСФОРМАЦИОННЫХ ПРОЦЕССОВ В КОММЕРЧЕСКИХ БАНКАХ УЗБЕКИСТАНА В УСЛОВИЯХ КОНКУРЕНЦИИ. *AMERICAN JOURNAL OF BUSINESS MANAGEMENT*, 3 (6), 57-64.
6. Джумаева, З. (2025). ПОВЫШЕНИЕ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ МЕСТНЫХ ПРОИЗВОДИТЕЛЕЙ С ПОМОЩЬЮ МЕТОДОВ

МАРКЕТИНГА. *Международный журнал искусственного интеллекта*, 1 (4), 105-107.

7. Жумаева, З. К. (2024). Инвестиционная Активность Как Основной Элемент Организационно-Экономического Механизма Маркетинга Территории. *Miasto Przyszłości*, 55, 1411-1417.

8. Джумаева, З. (2025). РОЛЬ ТОРГОВОЙ ПОЛИТИКИ В ОБЕСПЕЧЕНИИ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ НАЦИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКИ: СОВРЕМЕННЫЕ ПОДХОДЫ. *Международный журнал искусственного интеллекта*, 1 (1), 483-488.

9. Жумаева, З. К. (2024). Мобильный Маркетинг Как Эффективное Средство Стимулирования Сбыта Товаров И Услуг. *Miasto Przyszłości*, 54, 697-702.

10. Жумаева, З. К. (2024). РАЗВИТИЕ ТВОРЧЕСКИХ ИНДУСТРИЙ КАК ФАКТОР РОСТА НАЦИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКИ: ОБЗОР ЗАРУБЕЖНОГО ОПЫТА И ПЕРСПЕКТИВЫ ДЛЯ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН.

11. Джумаева, З. (2025). РОЛЬ ТОРГОВОЙ ПОЛИТИКИ В ОБЕСПЕЧЕНИИ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ НАЦИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКИ: СОВРЕМЕННЫЕ ПОДХОДЫ. *Международный журнал искусственного интеллекта*, 1 (1), 483-488.

12. Джумаева, З.К., и Гулямова, Н.Г. (2025). О 'ZBEKISTONDA MINTAQANI KOMPLEKS RIVOJLANTIRISHNI DAVLAT TOMONIDAN TARTIBGA SOLISH. *ТЕОРИЯ НАУЧНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ ВСЕГО МИРА*, 1 (5), 152-159.

13. Жумаева, З. К., & Ахмедова, Ф. Р. (2025). РОЛЬ ТОРГОВОЙ ПОЛИТИКИ В ОБЕСПЕЧЕНИИ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ НАЦИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКИ: СОВРЕМЕННЫЕ ПОДХОДЫ. *MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS*, 1(7), 323-330.

14. Jumayeva, Z.Q., & Matkarimov, G. (2025). MINTAQADA FAOL INVESTITSIYA SIYOSATINI IQTISODIYOT TARMOQLARINI O 'SISHIGA TA'SIRI. *ANALYSIS OF MODERN SCIENCE AND INNOVATION*, 1(6), 205-212.

15. Джумаева, ZQ (2017). ТЕОРИИ ОБЕСПЕЧЕНИЯ СТАБИЛЬНОСТИ НА РЫНКАХ ТРУДА РАЗВИТЫХ СТРАН. *Инновационное развитие*, (4), 64-66.

16. Джумаева, З.К., Мамаджонов, Г.Н. (2024). Пути усиления финансового контроля за использованием средств государственного бюджета. *Европейский журнал бизнес-стартапов и открытого общества*, 4 (1), 61-64.